YEVROOBLIGATSIYA VA UNING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN EMISSIYASI	807
Avezov Ibrohim Ilxomovich	



IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	808
Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi	
SPORT ANJOMLARI SANOATIDA INNOVATSION JARAYONLARNI TIZIMLASHTIRISH MODELINING ZARURATI.....	813
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GREEN MARKETING STRATEGIES AND THE APPLICATION OF NEUROMARKETING METHODS IN THEIR DEVELOPMENT.....	819
Samadov Asqar Nishonovich, Latipova Go'zal	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA KICHIK KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	825
Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING EMPIRIK TAHLILI	831
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONALAR ROLI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.....	840
Raxmonova Nigina Anvarovna	
IJTIMOIIY SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTONNING AMALIY YONDASHUVI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	844
Bafojev Farrux Jo'raqulovich	
AHOLI IJTIMOIIY HIMOYASINI KUCHAYTIRISH MUAMMOLARI	852
Ulashev Xubbim Askarovich	
YASHIL TA'LIM RIVOJLANISH BOSQICHLARI: YAPONIYA MISOLIDA	856
Raxshona Nabibullayeva	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON SAVDONING MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI.....	861
Mo'minov Yahyobek Shokirjon o'g'li	
TUROPATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	865
Toshev Akmal Salimovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQADA AHOI DAROMADLARINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	874
Quldasheva Maftuna Musurmon qizi	
ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	878
Алиева Эльнара Аметовна, Рахматхонов Саидодилхон Расулхон угли	
МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С РАЗВИВАЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ: РОЛЬ ESG-ИНСТРУМЕНТОВ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ.....	884
Нарзуллаева Мехрангиз Ақобировна	
DORIVOR O'SIMLIKLAR SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	893
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI	899
Voxidova Mehri Xasanovna	



O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI

Voxidova Mehri Xasanovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti kafedra mudiri, PhD, dotsent

mehrivoxidova@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0003-0809-0269>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning hozirgi holati, dinamikasi va tarkibiy xususiyatlari tahlil qilingan. 2017–2024-yillar davomida tovar ayirboshlash hajmining jadal o'sishi, eksport va import tarkibidagi o'zgarishlar hamda strategik tovar pozitsiyalarining shakllanishi empirik ma'lumotlar asosida ko'rsatib berilgan. Shuningdek, 2025-yildan joriy etilgan erkin savdo rejimining ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston–Turkmaniston savdo munosabatlarining energetika, kimyo sanoati, qurilish materiallari va mashinasozlik yo'nalishlarida yuqori o'sish salohiyatiga ega ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston–Turkmaniston savdosi, tashqi savdo aylanmasi, eksport, import, erkin savdo rejimi, energiya resurslari, mintaqaviy integratsiya.

Abstract. The article analyzes the current state, dynamics and structural features of trade and economic cooperation between Uzbekistan and Turkmenistan. The rapid growth of trade turnover, changes in the structure of exports and imports, and the formation of strategic commodity positions during 2017–2024 are shown based on empirical data. The importance of the free trade regime introduced from 2025 in further deepening economic relations between the two countries is also substantiated. The results of the study confirm that Uzbek-Turkmen trade relations have high growth potential in the energy, chemical industry, building materials and mechanical engineering sectors.

Key words: Uzbekistan-Turkmenistan trade, foreign trade turnover, export, import, free trade regime, energy resources, regional integration.

Аннотация. В статье анализируется современное состояние, динамика и структурные особенности торгово-экономического сотрудничества между Узбекистаном и Туркменистаном. На основе эмпирических данных показан стремительный рост товарооборота, изменение структуры экспорта и импорта, формирование стратегических товарных позиций в период 2017–2024 годов. Обосновывается важность режима свободной торговли, вводимого с 2025 года, для дальнейшего углубления экономических отношений между двумя странами. Результаты исследования подтверждают высокий потенциал роста узбекско-туркменских торговых отношений в таких секторах, как энергетика, химическая промышленность, производство строительных материалов и машиностроение.

Ключевые слова: торговля между Узбекистаном и Туркменистаном, внешнеторговый оборот, экспорт, импорт, режим свободной торговли, энергоресурсы, региональная интеграция.

KIRISH

Markaziy Osiyo mintaqasida o'zaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi[13]. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmining izchil o'sib borayotgani, ayniqsa 2017-yildan boshlab savdo dinamikasida sezilarli yuksalish kuzatilgani mintaqaviy iqtisodiy aloqalarning faollashganidan dalolat beradi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017–2021-yillar oralig'ida ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi qariyb besh baravarga oshib, 177,9 million AQSh dollaridan 902 million dollarga yetgan. Ushbu davrda eksport va import oqimlarining keskin ko'payishi hamkorlikning strukturaviy jihatdan mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

Turkmaniston O'zbekistonning mintaqaviy hamkorlari orasida strategik ahamiyatga ega bo'lib, ikki davlat iqtisodiyotlari o'zaro to'ldiruvchanlik xususiyatiga ega. Turkmanistondan neft mahsulotlari, kimyoviy xomashyo, qurilish materiallari va boshqa energetika resurslari importi O'zbekiston iqtisodiyotining energetik xavfsizligi hamda ishlab chiqarish tarmoqlari barqaror faoliyatida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonning Turkmanistonga



eksportida esa kimyo sanoati mahsulotlari, texnika va uskunalar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, qurilish materiallari yetakchi o'rinni egallab, iqtisodiy kooperatsiyaning kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar mintaqaviy integratsiyaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, transport-logistika tizimlarining yaxshilanishi, energetika kooperatsiyasi, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari almashinuvi asosida tobora rivojlanib bormoqda. Ushbu maqolaning maqsadi — ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning dinamikasi, tarkibi va tendensiyalarini tahlil qilish hamda kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar asosan Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiyaning shakllanishi, energetika bozori, transport yo'laklari va mintaqaviy savdo dinamikasi bilan bog'liq yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Savdo aloqalarining barqaror rivojlanishi ham geografik omillar, ham iqtisodiy siyosatning uyg'unlashuvi bilan izohlanadi.

Balassa (1961) tomonidan ishlab chiqilgan taqqoslama ustunlik nazariyasiga ko'ra, qo'shni davlatlar o'rtasidagi savdo hajmining o'sishi ularning ishlab chiqarish strukturasidagi farqlar va o'zaro to'ldiruvchanlik darajasi bilan bevosita bog'liq. Turkmanistonning neft-gaz resurslariga boyligi, O'zbekistonning esa qayta ishlash va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida rivojlanayotgan sanoati ikki tomonlama savdoning tabiiy asosini shakllantiradi[1].

Krugman va Obstfeld (2022) Markaziy Osiyo mamlakatlarining savdo oqimlarini tushuntirishda gravitatsiya modelini qo'llab, geografik yaqinlik va transport xarajatlarining pastligi mintaqaviy savdo ulushini keskin oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi. O'zbekiston–Turkmaniston savdosi ham aynan ushbu modelga mos ravishda o'sib bormoqda[2].

Mintaqaviy iqtisodiy tuzilma va integratsiya masalalariga oid tadqiqotlarda Pomfret (2019) Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdoning 2017-yildan boshlab sezilarli faollashuvini, ayniqsa O'zbekiston tashqi siyosatidagi ochiqlik va qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish tashabbuslari savdo hajmlariga ijobiy ta'sir ko'rsatganini qayd etadi[4].

Jahon banki (2020, 2023)ning Markaziy Osiyoda mintaqaviy savdo va transport yo'laklariga bag'ishlangan hisobotlarida O'zbekiston va Turkmanistonning o'zaro savdosida energetika resurslari, qurilish materiallari, kimyo mahsulotlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy o'rin tutishi, shuningdek, tranzit yo'laklarining modernizatsiyasi savdo hajmini sezilarli oshirishi ta'kidlanadi[5].

Osiyo taraqqiyot banki (ADB, 2021) ham O'zbekiston–Turkmaniston savdasining o'sish dinamikasini mintaqadagi transport koridorlarining kengayishi, xususan, Lapis Lazuli, Koreya–Xitoy–Markaziy Osiyo koridorlari bilan bog'lab, logistika xarajatlarining pasayishi savdo oqimlarining barqaror o'sishiga xizmat qilayotganini ko'rsatadi[6].

Turkmanistonning neft-gaz eksporti strukturasiga bag'ishlangan Gurel (2020) tadqiqotida ushbu davlatning eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish strategiyasi Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligi uchun muhim omil sifatida baholanadi[7].


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada maullif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, hududlar kesimida dolishtirma tahlil, tizimli modellashtirish, analiz, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik so'nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida regional integratsiya jarayonlarining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida jadal rivojlanib bormoqda. Savdo aylanmasining yildan-yilga barqaror o'sib borayotganini, ayniqsa 2017-yildan keyin keskin tezlashganini ko'rsatadi. 2010–2016-yillarda savdo hajmi past darajada bo'lgan bo'lsa, 2017-yildan boshlab chiziqli yuksalib, 2021–2024-yillarda rekord natijalarga erishilgan.

Xususan, 2017–2021-yillar oralig'ida O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo aloqalari sezilarli darajada faollashdi. Mazkur davrda ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 177,9 million AQSh dollaridan 902,0 million dollarga yetib, 5 baravar o'sdi. Shu davrda eksport hajmi 69,9 million dollardan 191,9 million dollarga ko'tarilib, 2,7 baravar, import esa 108,0 million dollardan 710,1 million dollarga yetib, 6,6 baravar o'sish qayd etildi.



1-rasm. 2010-2024-yillarda O'zbekistonning Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi, ming AQSh dollari[10]

2021-yilda ikki tomonlama savdo hajmi 902,0 million AQSh dollarini tashkil etdi va bu ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan 67,6 foizga oshganini ko'rsatadi. Eksport hajmi 52,2 foizga o'sib, 191,9 million dollarni, import esa 72,3 foizga oshib, 710,1 million dollarni tashkil etdi. Shu yili tovar aylanmasi tarkibida eksportning ulushi 21 foizni, importning ulushi esa 79 foizni tashkil etgan.

O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida Turkmaniston bilan savdo ulushi tovar aylanmasi bo'yicha 2,1 foiz, eksportda 1,2 foiz va importda 2,8 foiz darajasida qayd etilgan.

1-jadval. O'zbekistonning Turkmanistondan importida 2024-yilda Top-10 tovar pozitsiyalari[10]

№	Tovar nomi	Import qiymati (mln AQSh dollari)
1	Neft mahsulotlari, yoqilg'i, distillatsiya mahsulotlari	1 420
2	Sabzavotlar va ayrim ildiz-mevalar	10,09
3	Plastik mahsulotlar	9,59
4	Mashinalar, yadroviy reaktorlar, qozonlar	7,59
5	Paxta	6,51
6	Sun'iy tolalar (manmade staple fibers)	6,14
7	Avtotransport vositalari (temiryo'l va tramvaydan tashqari)	3,88
8	Tosh, gips, sement, asbest, sluda va o'xshash materiallar	3,18
9	Keramika mahsulotlari	3,12
10	Shisha va shisha buyumlari	2,66

2022-yilning yanvar–avgust oylarida O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 foizga oshib, 533,5 million dollarga yetdi. Shundan 146,5 million dollari eksport, 387,0 million dollari import hisobiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, 2021 yilga nisbatan tovar aylanmasida eksportning ulushi 27 foizga oshgan, importning ulushi esa 73 foizgacha kamaygan.

Umuman olganda, 2022-yilda O'zbekiston tashqi savdo hajmining sezilarli o'sishi natijasida Turkmaniston bilan savdo ulushi biroz qisqarib, tovar aylanmasida 1,7 foiz, eksportda 1,2 foiz, importda esa 2,0 foizni tashkil etdi.

Shunga qaramay, O'zbekistonning Turkmanistonga eksporti barqaror o'sish tendensiyasini saqlab qoldi. 2022-yilning yanvar–avgust oylarida eksport hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,1 foizga oshgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda Turkmaniston kapitali ishtirokida 168 ta korxona faoliyat yuritmoqda, shundan 17 tasi 2022-yil boshidan tashkil etilgan. Bu ikki davlat o'rtasidagi investitsion hamkorlikning izchil rivojlanayotganini, biznes muhitining ochiqligi va qo'shma loyihalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilayotganini ko'rsatadi.



2024-yilda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 1,15 milliard dollarni tashkil qildi. 2025-yilning birinchi yarmida o'zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb 500 million dollarga yetdi.

2-jadval. O'zbekistondan Turkmanistonga 2024-yildagi eksport tuzilmasi Top-10 tovarlari [11]

№	Tovar nomi	Eksport qiymati (mln AQSh dollari)
1	O'g'itlar	23,72
2	Mashinalar, yadroviy reaktorlar, qozonlar	12,68
3	Turli kimyoviy mahsulotlar	12,20
4	Tuz, oltingugurt, gips, ohak va tsement	12,16
5	Plastik mahsulotlar	11,81
6	Tosh, gips, tsement, asbest, sluda va shunga o'xshash materiallar	8,92
7	Elektr va elektron uskunalar	6,75
8	Qog'oz va karton mahsulotlari	5,91
9	Mevalar, yong'oqlar, tsitrus po'stlog'i va qovun mahsulotlari	5,05
10	Tikilmagan kiyim-kechak (noto'qima) mahsulotlari	3,24

2024-yilda O'zbekistonning Turkmanistondan import hajmi tarkibida energetika va sanoat xomashyolari ustunlik qilgan. Eng katta ulushni yoqilg'i va neft mahsulotlari egallab, jami importning mutlaq qismini shakllantirgan. Qolgan to'qqizta tovar guruhi asosan sanoat ishlab chiqarishi, qurilish materiallari va qayta ishlash sohalari bilan bog'liq.

Neft mahsulotlari (1,42 mlrd dollar) importi umumiy hajmning qariyb 97 foizini tashkil etdi. Bu Turkmanistonning tabiiy gaz, neft va ularning qayta ishlangan mahsulotlari bo'yicha O'zbekiston uchun strategik hamkor ekanligini ko'rsatadi. Energetika importining yuqori ulushi O'zbekistonning ichki neftni qayta ishlash quvvatlari yetarli emasligi va Turkmaniston resurslariga bo'lgan energetik bog'liqlikni tasdiqlaydi.

Sabzavotlar, ildiz-mevalar (10,09 mln \$) importining yuqoriligi — bu mavsumiy iste'mol tovarlari bozorida Turkmanistonning geografik yaqinligi va narx ustunligidan dalolat beradi. Paxta (6,51 mln \$) va sun'iy tolalar (6,14 mln \$) importi esa to'qimachilik sanoatida qo'shimcha xomashyo sifatida ishlatilayotganini ko'rsatadi.

2024-yilda O'zbekistonning Turkmanistonga eksport hajmida sanoat va kimyo mahsulotlari yetakchi o'rinni egallagan. Eng katta ulushni mineral o'g'itlar (23,72 mln \$) tashkil etgan bo'lib, bu O'zbekistonning kimyo sanoati eksport salohiyatining yuqori darajada ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Top-10 tovar pozitsiyalari O'zbekistonning ishlab chiqarish, qayta ishlash va resursga asoslangan eksport modelini aks ettiradi.

Eng katta ulush o'g'itlar (23,72 mln \$) hamda turli kimyoviy mahsulotlar (12,20 mln \$) hissasiga to'g'ri keladi. Bu O'zbekistonning kimyo sanoati va mineral resurslar bazasining eksportga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Kimyo mahsulotlariga talab Turkmanistonda yuqori, ayniqsa qishloq xo'jaligini intensivlashtirish jarayonida o'g'itlar muhim rol o'ynaydi.

Mashinalar va qozonlar (12,68 mln \$) hamda elektr uskunalari (6,75 mln \$) eksporti O'zbekistonning mashinasozlik va elektrotexnika tarmoqlari rivojlanayotganini bildiradi. Bu holat eksport tarkibida tayyor sanoat mahsulotlari ulushi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Tuz, tsement, gips, ohak (12,16 mln \$) va tosh mahsulotlari (8,92 mln \$) eksporti O'zbekistonning qurilish materiallari sanoati mintaqaviy bozorlar uchun raqobatbardosh ekanini ko'rsatadi. Bu tovarlar, asosan, Turkmanistonning janubiy viloyatlaridagi qurilish loyihalariga eksport qilinmoqda.

Plastik mahsulotlar (11,81 mln \$) eksporti O'zbekistonning kimyo va qayta ishlash sanoati diversifikatsiyasini namoyon etadi. Plastik buyumlar, asosan, sanoat va maishiy foydalanish uchun mo'ljallangan.

2024-yilgi eksport tuzilmasi O'zbekiston iqtisodiyotining ko'p tarmoqli va diversifikatsiyalashgan yo'nalishga o'tayotganini ko'rsatadi:

Kimyo va qurilish sanoati – asosiy eksport drayverlari.

Mashinasozlik va elektrotexnika – yangi o'sish markazi.

Agrosanoat va yengil sanoat – qo'shimcha qiymatli eksport yo'nalishlari sifatida shakllanmoqda.

Shuningdek, 2025-yil 25-fevralda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida erkin savdo rejimi o'rnatildi [12].

Bu rejimda ikki davlatda ishlab chiqarilgan tovarlarga bojxona to'lovlari ayrim istisnolardan tashqari o'zaro bekor qilindi. Bu istisnolar 2024-yil iyul oyida Toshkentda ikki hukumat o'rtasida imzolangan bayonnomada belgilab qo'yilgan.



Erkin savdo rejimidan ozod qilishlar ro'yxati 30 ta bandni o'z ichiga oladi:

- oq shakar (HS kodi 1701 99);
- mineral va gazlangan suvlar (2201);
- shirin suvlar va alkogolsiz ichimliklar (2202);
- solodli pivo (2203);
- tabiiy uzum vinolari (2204);
- vermutlar va o'simlik va aromatik qo'shimchalar bilan boshqa vinolar (2205);
- sidr va boshqa fermentlangan ichimliklar, ularning aralashmalari va alkogolsiz ichimliklar bilan aralashmalari (2206);
- konsentratsiyasi 80% bo'lgan etil spirti. yoki undan ortiq (2207);
- 80% hajmgacha etil spirti. (2208);
- Tamaki xomashyosi va chiqindilari (2401);
- Sigaretalar, sigarillolar va purolar (2402);
- Sanoatda ishlab chiqarilgan tamaki va uning o'rnini bosuvchi moddalar, tamaki ekstraktlari va essensiyalari (2403);
- Tarkibida tamaki, nikotin va ularning o'rnini bosuvchi mahsulotlar, yonishsiz inhalatsiya uchun (2404);
- Kumush kukuni, ishlov berilmagan yoki yarim ishlab chiqarilgan (7106);
- Kumush bilan qoplangan asosiy metallar (7107 00 0000);
- Oltin (7108);
- Asosiy metallar va oltin bilan qoplangan kumush (7109 00 000);
- Platina (7110);
- Platina bilan qoplangan metallar (7111 00 0000);
- Qimmatbaho metallar yoki qimmatbaho metallar bilan qoplangan metallar chiqindilari va parchalari (7112);
- Zargarlik buyumlari va ularning qismlari (7113);
- Zargarlik buyumlari yoki kumush buyumlari (7114);
- Qimmatbaho metallardan yoki qimmatbaho metallar bilan qoplangan metallardan tayyorlangan boshqa buyumlar (7115);
- Qimmatbaho metallardan yasalgan manjetlar va soch iplari (7117.11);
- Boshqa zargarlik buyumlari (7117.19);
- Tangalar (7118);
- 10 va undan ortiq kishilik avtobuslar (8702);
- Yengil avtomobillar (8703);
- Yuk mashinalari (8704);
- Maxsus maqsadli transport vositalari (avtomobillar, avtokranlar, beton aralashtirgichlar, yong'in va tozalash uskunalari va boshqalar) (8705).

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik so'nggi yetti yil ichida sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilib, mintaqaviy integratsiyaning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2017-yildan keyingi davrda savdo aylanmasining jadal o'sishi, eksport va importning sezilarli kengayishi, tovar strukturasining diversifikatsiyalashuvi ikki davlat iqtisodiyotlari o'rtasidagi o'zaro to'ldiruvchanlikning amaliy jihatdan kuchayganini ko'rsatadi. Savdo hajmining 2024-yilda 1,15 mlrd dollarga yetgani va 2025-yilning birinchi yarmida qariyb 500 mln dollar ko'rsatkich qayd etilgani ushbu hamkorlikning barqarorligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston–Turkmaniston savdo-iqtisodiy hamkorligi mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning muvaffaqiyatli modeli bo'lib, energetika, transport-logistika, qurilish, kimyo sanoati va texnologik kooperatsiya sohalarida yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Kelgusida ushbu hamkorlikni yanada chuqurlashtirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun quyidagi aniq, amaliy va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi:

- neft va yoqilg'i mahsulotlariga yuqori darajadagi bog'liqlikni hisobga olib, narx barqarorligini ta'minlaydigan uzoq muddatli kontraktlar tuzish;
- energiya resurslarini yetkazib berishning diversifikatsiya qilingan logistik yo'nalishlarini shakllantirish;
- "Xorazm–Dashoguz", "Toshkent–Turkmanobod–Marv" yo'nalishlarida yuk tashish oqimlarini optimallashtirish;
- temir yo'l va avtomobil yo'llarida chegara o'tish punktlarining raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish;
- tranzit bojxona tartiblarini soddalashtirish orqali yetkazib berish vaqtini qisqartirish.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Balassa, B. (1961). The Theory of Economic Integration. London: Allen & Unwin.
2. Krugman, P. R., Obstfeld, M., & Melitz, M. (2022). International Economics: Theory and Policy (11th ed.). Pearson.
3. Venables, A. J., & Fujita, M. (1999). The Spatial Economy: Cities, Regions, and International Trade. MIT Press.
4. Pomfret, R. (2019). The Central Asian Economies in the Twenty-First Century: Paving a New Silk Road. Princeton University Press.
5. World Bank, Central Asia Trade and Connectivity Report, 2020; Regional Economic Update, 2023
6. ADB, Central Asian Regional Economic Cooperation (CAREC) Corridor Performance Measurement and Monitoring Report, 2021
7. Gurel, A. (2020). Energy Geopolitics in Central Asia: New Dynamics in Turkmenistan's Foreign Trade. Energy Policy, 144, 111–152.
8. BP Statistical Review of World Energy (2023). British Petroleum. Retrieved from <https://www.bp.com/statisticalreview>
9. International Energy Agency (2022). Central Asia Energy Outlook. IEA Publications.
10. <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/imports/turkmenistan>
11. <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/balance-of-trade>
12. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o'rtasida "1996-yil 16-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o'rtasida uzoq muddatli savdo-iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi Bitimga erkin savdo rejimidan istisnolar to'g'risidagi bayonnoma. <https://lex.uz/ru/docs/-7415779>
13. Markaziy Osiyo mamalakatlari qishloq xo'jaligining tarmoq tarkibi tahlili. (2025). In Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss4-pp513-525>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>